XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 6-yanvar VII-17-1-12-218-K/26 Tuproqqal'a tumani

Tuproqqal’a tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2026-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2025-yil 12-noyabrdagi 24-127593-sonli, viloyat soliq boshqarmasi va viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrdagi qo‘shma xatlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Mahallalar iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2026-yil 1-yanvardan yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdorlari 1-, 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.
3. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.
4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **JIMALYAZOV AKMAL ORTIQOVICH**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-17-1-12-218-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1.	“Navbahor” MFY	1,25	405,28
2.	“Yakkachiqir” MFY	1,17	379,34
3.	“Shayxlar” MFY	1,17	379,34
4.	“Hazorasp” MFY	0,87	282.07
5.	“Tuproqqal’a maskani” MFY	0,87	282.07
6.	“Sayapir” MFY	1,17	379,34
7.	“Sarimoy” MFY	0,87	282.07
8.	“Yangizamin” MFY	1,17	379,34
9.	“Saidlar” MFY	1,17	379,34
10.	“Saxovat” MFY	1,25	405,28
11.	“Muhabbat” MFY	1,25	405,28
12.	“Yoshlik” MFY	1,25	405,28
13.	“Pastom” MFY	1,17	379,34
14.	“Obod” MFY	1,17	379,34
15.	“Nurobod” MFY	1,17	379,34
16.	“Sharlauq” MFY	1,25	405,28
17.	“Nukus maskani” MFY	0,87	282.07
18.	“Yo‘ldosh Oxunboboyev” MFY	1,17	379,34

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 6-yanvardagi
VII-17-1-12-218-K/26 -son qaroriga
2-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida **mutlaq miqdorga 1 gektarga** belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1.	“Navbahor” MFY	1,27	53 848 000
2.	“Yakkachiqir” MFY	1,08	45 792 000
3.	“Shayxlar” MFY	1,08	45 792 000
4.	“Hazorasp” MFY	0,89	37 736 000
5.	“Tuproqqal’a maskani” MFY	0,89	37 736 000
6.	“Sayapir” MFY	1,08	45 792 000
7.	“Sarimoy” MFY	0,89	37 736 000
8.	“Yangizamin” MFY	1,08	45 792 000
9.	“Saidlar” MFY	1,08	45 792 000
10.	“Saxovat” MFY	1,27	53 848 000
11.	“Muhabbat” MFY	1,27	53 848 000
12.	“Yoshlik” MFY	1,27	53 848 000
13.	“Pastom” MFY	1,08	45 792 000
14.	“Obod” MFY	1,08	45 792 000
15.	“Nurobod” MFY	1,08	45 792 000
16.	“Sharlauq” MFY	1,27	53 848 000
17.	“Nukus maskani” MFY	0,89	37 736 000
18.	“Yo‘ldosh Oxunboboyev” MFY	1,08	45 792 000